Abstract: Modern society is experiencing a difficult period in the spiritual and moral sphere. The loss of basic values and the continuity between generations leads to the emergence of a spiritual crisis. The tasks of educating the younger generation, bringing it to spiritual and moral maturity are the priority areas of education today. Despite the fact that the problem of tolerance in our country is very young, its formation has received great attention, especially from representatives of the younger generation, researchers and graduate students. The highest goal has been chosen to widely instill the concept of pedagogical tolerance in professors and teachers in higher educational institutions of our country. Its purpose is to develop norms of tolerant behavior that determine the stability of the behavior of individuals and social groups in various situations of social tension and introduce them into social practice.

Key words: Pedagogical tolerance, master's students, professors, tolerance, higher education institutions, educational process, pedagogical tolerance, patience, sympathy, acceptance, trust, respect, absence of hostility, kindness, restraint, social category, authoritarian syndrome, intolerance, empathy.

Аннотация: Современное общество переживает сложный период в духовно-нравственной сфере. Утрата базовых ценностей и преемственности между поколениями приводит к возникновению духовного кризиса. Задачи воспитания подрастающего поколения, доведения его до духовно-нравственной зрелости являются сегодня приоритетным направлением образования. Несмотря на то, что проблема толерантности в нашей стране совсем молодая, ее формированию уделяется большое внимание, особенно со стороны представителей молодого поколения, научных сотрудников, аспирантов. Высшей целью была избрана широкая пропаганда педагогической толерантности среди профессорско-преподавательского состава высших учебных заведений нашей страны. Ее цель – разработка и внедрение в общественную практику норм толерантного поведения, определяющих устойчивость поведения индивидов и социальных групп в различных ситуациях социальной напряженности.

Ключевые слова: Педагогическая толерантность, магистранты, преподаватели, толерантность, высшие учебные заведения, образовательный процесс, педагогическая толерантность, терпение, сочувствие, принятие, доверие, уважение, отсутствие враждебности, доброта, сдержанность, социальная категория, авторитарный синдром, нетерпимость, эмпатия.



KIRISH

Jahon miqyosidagi globallashtirish jarayonida insoniyat hamjamiyati gumanistik qadriyatlar va axloqiy begonalashuvdan xavotirga tushmoqda. Shu jihatdan ham, dunyo miqyosidagi oliy ta'limni xalqarolashuvi va integratsiyalashuvi magistratura talabalarini global muhitda faoliyat yuritishga maqsadli tayyorlash, turli madaniyat vakillari bilan kasbiy hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini shakllantirish, madaniy, etnik qadriyatlar va o'ziga xosliklarni to'g'ri idrok etishga o'rgatish ilm-fanning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Yevropa Ittifoqining 2020-yildagi Xalqaro seminarida o'sib kelayotgan avlodni bag'rikenglik ruhida tarbiyalash, yoshlarda mustaqil fikrlash, tanqidiy tafakkur va axloqiy qadriyatlarga asoslangan qarorlar qabul qilish, tarixiy-madaniy merosga aksiologik munosabatni shakllantirish kabi ustuvor vazifalar sifatida belgilab berildi. Ayniqsa, magistratura talabalarida pedagogik tolerantlik tafakkurini rivojlantirish, shuningdek, magistratura talabalarini talaba va o'quvchilarda tolerantlik ruhida tarbiyalashga tayyorlashning didaktik tizimini takomillashtirish muhim dolzarblik kasb etadi.

Tadqiqotning obyekti pedagogika oliy ta'lim muassasalari magistratura talabalarida pedagogik tolerantlik tafakkurini rivojlantirish jarayoni tanlanib olingan.

Tadqiqotning predmeti pedagogika oliy ta'lim muassasalari magistratura talabalarida pedagogik tolerantlik tafakkurini rivojlantirishning modernizatsion omillari, didaktik parametrlari va amaliy-texnologik tizimi.

Tadqiqotning maqsadi modernizatsiyalashgan didaktik ta'minot vositasida pedagogika oliy ta'lim muassasalari magistratura talabalarida pedagogik tolerantlik tafakkurini rivojlantirishning konseptual asosi va amaliy-texnologik tizimini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

- pedagogika oliy ta'lim muassasalari magistratura talabalarida pedagogik tolerantlik tafakkurini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini va omillarini yoritish;
- kompetensiyaviy yondashuv asosida pedagogika oliy ta'lim muassasalari magistratura talabalarida pedagogik tolerantlik tafakkurini rivojlantirishning tashkiliy-texnologik jihatlarini asoslash;
- interfaol ta'lim metodlari va texnologiyalari vositasida magistratura talabalarida pedagogik tolerantlik tafakkurini rivojlantirishga doir tarbiyaviy tadbirlarni loyihalash va rejalashtirishning integrallashgan metodik tizimini takomillashtirish;

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mamlakatimizda magistratura talabalarining ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini yo'lga qo'yish, ularda pedagogik tolerantlik tafakkurini rivojlantirish, ijodiy tafakkurini qaror toptirish pedagogika sohasining muhim yo'nalishi sifatida buyuk qomusiy va pedagog olimlar Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy, Maxmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy kabilarning ilmiy meroslari manba bo'lib xizmat qildi. Psixolog olimlardan M.Davletshin, V.Karimova, A.Leontev, A.Maslou, Z.Nishonova, L.Rubinshteyn, N.Safayev, E.G'oziyev kabilarning ilmiy tadqiqotlari, monografiya va o'quv qo'llanmalarida tolerantlik tafakkur rivojining psixologik va metodik jihatlarini yoritib berilgan. Pedagogik tolerantlik tafakkurini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik muammolarini nazariy va amaliy jihatdan o'rganishda xorij olimlaridan G. Auernheimer, H Barkowski, M. Bennet, R.Carbines, J.Lock, A.Sana, B.Soraya, G.Hofstede kabilarning ishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida muammoga doir falsafiy, sotsiologik, psixologik, pedagogik adabiyotlarni qiyosiy-tanqidiy o'rganish va tahlil etish; oliy ta'lim muassasalaridagi ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish; diagnostik (so'rov, anketa, kuzatish, suhbat, intervyu), prognostik (ekspert bahosi, mustaqil baholarni umumlashtirish), pedagogik tajriba va matematik-statistika usullari (statistik ma'lumotlarni qayta ishlash, natijalarni grafik tasvirlash) usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Gumanitar soha magistratura talabalarida pedagogik tolerantlik tafakkurini rivojlantirishga doir samaradorligini ta'minlovchi ta'lim-tarbiya tizimidagi pedagogik-psixologik xususiyatlar va omillari aniqlashtirilgan;

“pedagogik tafakkur”, “tolerantlik tafakkuri”, “pedagogik tolerantlik tafakkuri”, “modernizatsiyalashgan didaktik ta'minot” kabi tushunchalarning mazmun-mohiyati hamda pedagogik tolerantlik tafakkurining tarkibiy qismlari (qadriyatli-motivatsion, refleksiv-baholovchi, faoliyatga doir, kognitiv) mualliflik yondashuvi asosida pedagogik talqin etilgan;

talabalarda pedagogik tolerantlik tafakkurini rivojlantirishga doir mustaqil ta'limni tashkil etish metodikasi takomillashtirilgan.

Ilm-fan taraqqiyoti bugungi kunda jadal rivojlanayotgani hech kimga sir emas. Butun dunyoda ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish avvalo fan taraqqiyotidagi global muammolar bilan bevosita bog'liqligi barchamizga ma'lum. O'zbekiston Respublikasida yoshlarda tolerantlik tafakkurini shakllantirish tizimi davlat va shaxs, davlat va fuqarolik jamiyati, davlat va oila ustuvorligi, oila himoyasi, davlat va milliy havfsizlik, davlat va mafkura, davlat va ta'limtarbiya, davlat va aholi salomatligi, davlat va xotin-qizlar, davlat va yoshlar kabi o'zaro aloqador va mutanosib ijtimoiy-siyosiy yo'nalishlardan iborat qilib belgilandi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5040-son qarorida ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarni tashkil etishda yaxlit tizim mavjud emasligi, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarni ma'naviy tahdidlardan himoya qilish borasida yetarli darajada tashkiliy-amaliy va ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmayotganligi alohida ta'kidlab o'tilib, "targ'ibot-tashviqot va tarbiya yo'nalishidagi ishlarni ilmiy asosda tashkil etish, soha bo'yicha ilmiy va uslubiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish"^[1] muhim yo'nalish sifatida belgilab berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutq so'zlab, yig'ilish qatnashchilari oldida bir qator dolzarb jiddiy tashabbuslar, shu jumladan, ma'rifat va diniy bag'rikenglik bo'yicha taklif bilan chiqqan edi: "Bugungi sessiya ishtirokchilariga BMT Bosh Assambleyasining "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" deb nomlangan maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish taklifi bilan murojaat qilmoqchiman. Bu hujjatning asosiy maqsadi – barchaning ta'lim olish huquqini ta'minlashga, savodsizlik va jaholatga barham berishga ko'maklashishdan iborat. Ushbu rezolyutsiya bag'rikenglik va o'zaro hurmatni qaror toptirish, diniy erkinlikni ta'minlash, e'tiqod qiluvchilarning huquqini himoya qilish, ularning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslikka ko'maklashishga qaratilgan"^[2].

Hozirgi kundagi global o'zgarishlar, fan-texnika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kun sayin rivojlanib borishi XXI asr gumanitar soha magistratura talablaridan pedagogik mahoratni, o'tkir irodani, pedagogik-psixologik bilimlarni, o'z fanini chuqur bilishni va yuksak tafakkurni, siyosiy savodxonlikni, fikrlash doirasi keng va mulohazali bo'lishni talab qiladi. Pedagogik oliy ta'lim muassasalari magistratura talabalari barkamol avlod ta'lim-tarbiyasi uchun javobgar shaxs bo'lib, nafaqat ma'naviy-axloqiy madaniyati bilan atrofdagilarga o'rnak bo'lishi, shu bilan birga, pedagogik mahoratini ham namoyon eta olishi, yetuk o'qituvchi sifatida malakali kadrlarni tayyorlash ishiga o'zining munosib hissasini qo'shishi zarur.

Shaxs, ijtimoiy ong va xulq-atvorni maqsadli shakllantirish sifatida tushuniladigan ulug' mutafakkirlar merosi o'quvchilarni nafaqat ta'lim-tarbiya jarayonida, balki hayotini oilasi va jamiyatda ham munosib tashkil yetish yo'llarini o'rganish malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotimiz mavzusi nuqtayi nazaridan, o'rganish va rivojlanish masalasini ikki jarayon o'rtasidagi bog'liqlik sifatida aniqlab olishni shart qilib qo'ydi. Fikrimizsha, pedagogik ta'lim mazmuniga uning muayyan yo'l bilan o'rganiladigan va har biri maxsus o'qitish usullari, jumladan, ijodiy faoliyat tajribasini talab qiladigan barsha yelementlarini kiritish zarur. Lekin individual xususiyatlar, idrok turlari, tabiiy moyillik va boshqa masalalar bilan bog'liq muammolar pedagogika ta'limi jarayonida aniq yechimlarni taqozo etadi.

So'nggi vaqtlarda ayrim metodist va pedagog olimlar tomonidan "tolerantlik", "tafakkur", "pedagogik tolerantlik", "pedagogik tafakkur" tushunchalar mohiyati ochib berish va ilmiy tahlil qilishga doir ilg'or tajribalarga tayanib, pedagogika ta'limi mazmunini takomillashtirish borasida zarur tavsiyalar berimoqda.

"Falsafa: izohli lug'at"da bag'rikenglik tushunchasiga shunday ta'rifni uchratamiz: "Tolerantlik (lot. tolerantia – chidam, sabr-toqat) – o'zgalarning turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, his-tuyg'ulari, fikr-mulohazalari, g'oyalari va e'tiqodlariga nisbatan chidamlilik, bag'rikenglikni ifodalaydigan tushunchadir. Tolerantlik bir-biriga o'xshamagan insonlarning birga ahillikda yashashga intilishidir. Biror-bir insonda yoki biror-bir begona madaniyatda bizga nimadir yoqmasligi mumkin, biroq ular o'zgalarning huquq va manfaatlariga ziyon yetkazmasa, joriy qonunlarni buzmasa, ularning mavjudligi va rivojlanishini tan olishimiz kerak. Ya'ni, tolerantlik – bu o'zgalarning fikri, qarashlari va hatti-harakatiga passiv, tabiiy ravishda bo'ysunishni anglatmaydi. Balki, alohida odamlar, turli guruhlar, xalqlar, ijtimoiy guruhlar o'rtasida bir-birini tushunish, ijobiy hamkorlik yo'lidagi faol axloqiy pozitsiya va psixologik hozirlikni anglatadi". Ushbu ta'rifda bag'rikenglik insonlar, turli ijtimoiy birliklar o'rtasidagi munosabatlarda namoyon bo'luvchi axloqiy va psixologik pozitsiya sifatida keltirilmoqda. Bizningcha ham bag'rikenglikka axloqiy-ruhiy pozitsiya yoki hayotiy pozitsiya sifatida qarash uni kengroq kontekstda tushunish imkonini beradi. Qator nazariyotchi olimlar e'tirof etishicha, diniy bag'rikenglik nazariyasining otasi (the father of the theory) sifatida angliyalik pedagog va faylasuf olim Jon Lokk hisoblanadi^[3]. Jon Lokning bizgacha yetib kelgan asarlari: "Tabiat qonunlariga doir tajribalar" (1662–1664 y.), "Din erkinligini etirof etishga doir tajriba" (1667 y.), "Inson tafakkuriga doir tajribalar" (1689 yil, olim bu asar ustida 20 yildan ziyod mehnat qilgan), "Tarbiyaga oid ba'zi fikrlar" (1693 y.), "Boshqarish to'g'risida ikki risola" (faylasuf mazkur asarni aslida 1681-yilda yozib tugatgan bo'lsa-da, biroq o'sha paytda Angliyada bunday liberalistik qarashlar haqida yozish juda xavfli bo'lganligi sababli uni to'ldirishlar bilan birgalikda 1698-yilda chop ettirgan).

Demak yuqoridagi ta'riflardan kelib chiqib aytish mumkinki, "tolerantlik" – o'zgalarga nisbatan mehr-muruvvatli, g'amxo'r, saxiy, keng fe'lli bo'lgan, ana shunday ma'naviy fazilatlariga ega kishilarni ifodalovchi, alohida



kishilar dunyoqarashi, diniy e'tiqodi, milliy xususiyatlari, an'ana, urf-odat va marosimlariga hurmatda bo'lish, o'zaro munosabatlarda tahqirlash kabilarga yo'l qo'ymaslik, insoniylik sifatlarini barcha narsalardan ustun qo'yib, oilada, jamoada, ish joylarida mazkur qoidalarga amal qilishni anglatadi. Tolerantlik masalasi keng o'rganilishiga qaramasdan, ilmiy kategoriya va hodisa sifatida hozirgacha uning aniq nazariy qoidalari, tamoyillari va asoslari ishlab chiqilmagan.


Tolerantlik o'zida bir necha milliy va umumbashariy axloqiy normalar va estetik qadriyatlarni, shuningdek ijtimoiy dolzarb tushunchalarni mujassam etadi. Shu bois, tolerantlikni ko'p qirrali ijtimoiy-psixologik kategoriya sifatida talqin qilinadi.

Demak, pedagogika uchun, bir tomondan, tolerantlik tushunchasining umumiy miqyosdagi zamonaviy mazmunini belgilash muhim bo'lsa, ikkinchi tomondan, har bir ta'lim bosqichi uchun qaysi xususiyatlar va qay darajada shakllantirilish lozim, degan vazifa muhim ahamiyat kasb etadi. Yosh differensiyasini nazarga olmasdan turib, tolerantlikning barcha xususiyatlarini to'laqonli shakllantirib bo'lmaydi.

Ijtimoiy fanlardagi tadqiqotlar "tolerantlik" kategoriyasini millatlararo, dinlararo "bag'rikenglik" mazmunida qabul qilinishi ilmiy bahs munozaralarga sabab bo'lmoqda. Chunki, tolerantlik umumbashariy deklarativ halqaro huquqiy me'yor bo'lib, har bir davlatda o'ziga xos fuqarolik munosabatlarida milliy-diniy, demografik-ijtimoiy harakat va harakatsizlikning me'yoriy tizimidir. Boz ustiga bu masala BMT Nizomi va o'zga xalqaro aktlardagi eng ilg'or gumanizm g'oyalari bilan sug'orilgan huquqiy munosabatning oliy shaklidir. Tolerantlik demokratik madaniyat ko'rsatkichi bo'lib, qonun ustuvorligiga tayanuvchi "industrial" taraqqiyot bosqichida shakllangan inson huquq va erkinligi tamoyilidir ^[4].

Har bir inson, ayniqsa, magistratura talabarlari faqatgina ta'lim tizimi, ijtimoiy-pedagogik tarbiya va rivojlanish, kasbiy shakllanish jarayonidan o'tib, yetuk mutaxassisga aylanadi. Ushbu jarayonda u pedagogik ahamiyat kasb etadigan ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish ko'nikma va malakalarini takomillashtirib boradi. Zimmasidagi pedagogik vazifalarni to'la anglash asosida pedagogik va ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatiga moslasha boradi.

Tolerantlik namoyon bo'lishining bir jihati o'qituvchining jamiyatda o'zini tutishi va o'z fikrini boshqalarga to'g'ri yetkazishi, tashqi salbiy ta'sirlarga qarshi turish qobiliyati bilan bog'liq.



1-rasm: Magistratura talabalarida pedagogik tolerantlik tafakkurni rivojlantirish tuzilmasi

Shu bois pedagogika oliy ta'lim muassasalari magistratura talabalarida pedagogik tolerantlik tafakkurni rivojlantirish ishlarini olib borishda zarur pedagogik-psixologik sharoitlarni yaratishga jiddiy e'tibor qaratilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan:

- ta'lim-tarbiya jarayoniga modernizatsiyalashgan didaktik ta'minot tatbiq etish va bu jarayonda umuminsoniy hamda milliy qadriyatlar, boy madaniy meros namunalari, xalq an'analaridan foydalanish;
- ta'lim mazmunini zamonaviy pedagogik g'oyalar va ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan boyitish;
- rivojlangan xorijiy mamlakatlarning tajribalarini milliy-hududiy xususiyatlarni inobatga olgan holda uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish maqsadida tatbiq etish;
- oliy ta'lim muassasalari va ijtimoiy tao'kilotlar o'rtasida o'zaro gumanitar soha magistratura talabalarini ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatiga yo'naltirishni kuchaytirish kerak.

Shu mazmunda pedagogika fani rolini ham kuchaytirish shart. Talabalar ongida, birinchi navbatda, insonparvarlik qadriyatlarini shakllantirish hamda mustahkamlash bilan magistratura talabalarini pedagogik tolerantlik maqsadiga muvofiq tarzda tarbiyalash, ularda tolerantlik tafakkurni rivojlantirish zarur.



Tafakkur – voqelikning umumlashtirib aks ettirilishidir. Narsa yoki hodisalar o'rtasidagi eng muhim bog'lanishlar va munosabatlar tafakkur yordami bilan ochiladi. Binobarin, tafakkur insonning shunday aqliy faoliyatidirki, bu faoliyat voqelikni eng aniq (to'g'ri), to'liq, chuqur va umumiy lashtirib aks ettirishga (bilishga), insonning yanada oqilona amaliy faoliyat bilan shug'ullanishiga imkon beradi.

Sog'lom tafakkur – hozirgi kunda ta'lim olishda, shuningdek, bolalar va yoshlarni ma'naviy – axloqiy, intellektual va jismoniy jihatdan tarbiyalashda oila, ota-onalar, jamoat tashkilotlari, mahallalar, hayriya va xalqaro fondlarning rolini kuchaytirish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqilib ijtimoiy hayotga keng ko'lamda tadbir etilib kelinmoqda.

Xususan, muallifning tafakkur va fikrlashga oid fikrlari o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, –tafakkurll kategoriyasidan ko'ra, –fikrlashll, –mulohaza yuritishll degan atamalarini ishlatishni afzal ko'radi. U bu bilan –mavjud tajribani anglash va yangi qarorlar, fikrlarning mujassamlashuvll jar'eni tushunadi. Fikrlovchi ongning ishlashi uchun, uning fikricha, uni doimo mashq qildirish, yangi odatlar bilan boyitib borishi kerak.

“Pedagogik tolerantlik tafakkur” tushunchasining pedagog kasbiy rivojida tutgan o'rni turli zamon va makonlarda yashagan mutafakkirlarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Abu Nasr Forobiy o'zining “Fozil odamlar shahri” asarida inson tafakkuri haqida fikr yuritir ekan: “Modomiki, u o'z zotidan fikr qilishga qodir bo'la olar ekan, u oqil bo'la oladi. Natijada uning zoti aqlga erishsa, u holda u fe'li bilan aqlga ega bo'ladi. Balki u aql bo'la oladi, u o'z zoti bilan fikr qiladigan, oqil bo'la oladi. Zotning o'zi ham aqlga erishdimi, demak, uning o'zi ham aqlga erisha oladi”, degan fikr orqali aql va intellektning o'zaro uyg'un hamda farqli jihatlarini tahlil etgan.

Pedagogning tolerantlik tafakkuri, avvalo, magistratura talabalarining ta'lim-tarbiyaga yondoshuvi shuningdek, turli til va madaniyatga mansub talabalarining tili, madaniyati va milliy qadriyatlariga hurmat bilan munosabatda bo'lishni o'z ichiga oladi. U pedagogik muammolarni hal qilishda, talabalarining fikrlariga hurmat bilan yondashishda, ixtiyoriy muloqotda ishonchli va adolatli bo'lish fazilatlarini shakllantirib boradi [5].


Tolerantlik tafakkurining asosiy xususiyatlari:

1. Insonga hurmat: Pedagog, o'z uqitish jarayonida talabalarining shaxsiyati, madaniyati, fikrlash tarzi va yashash qarashlariga hurmat ko'rsatishi kerak.
2. Fikrlar va qarashlar xilma-xilligiga achish: Pedagog o'quvchilarga turli xil nuqtai nazarlarni ko'rish va ularni qabul qilishga yordam beradi.
3. Emotsional barqarorlik: Pedagogning har bir talabaga nisbatan boshqalarni e'tibor bilan tinglash va o'zaro ishlashda ularning his-tuyg'ularini tushunish qobiliyati.
4. Inklyuziv ta'lim: Bu o'quv jarayonida barcha talabalarga, ularning individual xususiyatlariga qaramay, teng huquq va imkoniyatlar berishga qaratilgan yondashuv.

Pedagogik tolerantlik tafakkuri va ijtimoiy pedagogika:

Pedagogning tolerantlik tafakkuri ijtimoiy pedagogikadagi muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ijtimoiy pedagogika jamiyatning turli ijtimoiy to'da va qishloqlariga o'quvchilarni ma'naviy, jamiyatga integratsiyalashtirish, ularga ijtimoiy mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga yordam berishga qaratilgan. Pedagoglar bu jarayonda talabalarni yoshdan yoshga, turli dinlar, millatlar va ijtimoiy shaxslar bilan ijobiy munosabatlarga va ular bilan turli kontekstlarda ishlashga o'rgatadilar.

Jahonda magistratura talabalarining pedagogik tolerantlik tafakkurini rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarida magistratura talabalarini kasbiy tayyorlash bosqichlari, metod va shakllariga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Magistratura talabalarida pedagogik tolerantlik tafakkurini rivojlantirish mazmuni, rivojlantirish mexanizmlari, magistratura talabalarida pedagogik tolerantlik va tolerantlik tafakkurni rivojlantirish hamda ularni amaliyotga tatbiq eta olish mahorati darajalarini aniqlash muammolariga doir ilmiy-tadqiqotlar AQSh, Hindiston, Xitoy olimlari tomonidan olib borilmoqda.



2-rasm: Pedagogik tolerantlik tafakkurni rivojlantirishning pedagogik asoslari



Gumanitar soha magistratura talabalarida pedagogik tolerantlik tafakkurni rivojlantirishning pedagogik-psixologik mohiyatini anglab yetish uchun avvalo tolerantlik tafakkurining magistratura talabalarida rivojlantirish erkin fikrlash jarayonining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida qarashni taqozo etadi ^[6].

Zamonaviy professor-o'qituvchisi ma'naviy va axloqiy, kommunikativ, umumiy pedagogik va professional jihatdan muhim bo'lgan maxsus guruhga mos keladigan kasbiy fazilat sifatida – tolerantlikka ega bo'lmasa, ta'lim jarayonida samarali hamkorlikni amalga oshirishini tasavvur qilish qiyin.

Tolerantlikning xalqaro munosabatlar me'yorlari doirasida butun insoniyat madaniyatiga aylanishi xalqlar, davlatlar, millatlar, elatlar, guruhlar va boshqa insoniy birliklar o'rtasidagi, qolaversa, inson va tabiat, inson va texnika, inson va koinot munosabatlaridagi juda ko'plab ziddiyatlarga barham berishi mumkin ^[7]. Tadqiqotlar jarayonida o'quvchi, yosh sportchilarning muvoffaqiyatga erishishida har tomonlama jismoniy tarbiya o'qituvchisining mavqey, obro'-e'tibori muhim ma'no kasb etishi aniqlandi. U o'z o'quvchilari uchun sportning barcha turlari bilan muntazam shug'ullanuvchi inson sifatida namuna hisoblanadi. Shu bois jismoniy tarbiya o'qituvchilarida pedagogik tolerantlikni rivojlantirishning didaktik tamoyillari (o'quv materialini improvizatsiya qila olishga innovatsion yondashuv; din va madaniyatlar o'rtasida o'zaro hurmat, o'zaro aloqa va o'zaro ta'sir tamoyili; ijtimoiy-g'oyaviy madaniyatning ustuvorligi tamoyili), metodik omillari (texnologiyalashtirish, algoritmlashtirish, loyihalashtirish), identifikatsiya iyerarxiyasi (biologik, fiziologik, ijtimoiy va madaniy), ta'lim vositalari (asosiy vositalar, yordamchi vositalar), dars mazmuni pedagogik motivlar, extiyojlar, kommunikativ tolerantlik, manfaatlar yakdilligini aniqlash, o'zaro samarali aloqa natijasiga erishishning shakl, metod va vositalarini tanlash, tasniflash va taqdim etish ko'nikma va malakalarini takomillashtirishni taqozo etdi.

Tolerantlik aslida tarbiya qilish va ta'lim berish bilan bog'liq bo'lgan uzoq muddatli, davomiy, izchil olib boriladigan, maqsadli, dinamik jarayonligi, talabalarda pedagogik tolerantlikni rivojlantirish esa mana shu uzoq muddatli jarayonning eng so'nggi va yetuk davri, uning oxirgi nuqtalaridan biri ekanligiga e'tibor qaratildi. Magistratura talabalarida pedagogik tolerantlik tafakkurni rivojlantirish Shu bois, mazkur jarayon, ta'lim tizimida avvalgi bosqichlarda shakllantirilmagan xususiyatlarning qayta shakllantirilishi, borlarini esa kuchaytirish va mustahkamlash yo'lidan borishni taqozo etdi ^[8].

Shu bois, tolerantlik bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni kompleks tahlil qilish hamda bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida pedagogik tolerantlikni rivojlantirish jaraoyida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etish maqsadida ijtimoiy-kommunikativ yondashuvga asoslangan topshiriqlar tizimi ishlab chiqildi. Topshiriqlar uchun materiallar tanlashda: dolzarblik, motivation imkoniyatlarga egalik, vaziyatlilik, qiziqarlilik, tarbiyaviy ahamiyatga egalik va muammolilik singari belgilariga va ta'lim sifatini yaxshilash talabalarning intellektual faolligini oshirishga mo'ljallangan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashga ahamiyat qaratildi. Bunda interfaol usullardan foydalanish yaxshi samara berishi kuzatildi. Interfaol usul, ma'lumki, o'quvchi va o'qituvchining o'zaro hamkorlikda faoliyat ko'rsatishidir.

Magistratura talabalarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari masalalariga oid tadqiqotlar G.Yu.Dmux, Ye.S.Kulyukina, S.V.Osina kabi olimlarning ilmiy, illmiy-metodik ishlarida o'z aksini topgan ^[9].

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, Ijtimoiy rivojlanishning zamonaviy sharoitlari pedagogik tolerantlikni shakllantirishni ta'minlovchi yangi talablarni qo'ymoqda. Pedagogik bag'rikenglik magistratlarning kasbiy jihatdan muhim sifati sifatida qaralishi mumkin, bu uning ishining samaradorligiga, shuningdek, professor-o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi va shaxsini rivojlantirish nuqtai nazaridan ta'lim jarayonining barcha sub'ektlari bilan munosabatlariga ta'sir qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

1. Magistratura talabalarida pedagogik tolerantlik tafakkurni rivojlantirishda pedagogik muloqot eng ahamiyatli komponent hisoblanadi. Tolerantlik – o'zgalarning turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, his-tuyg'ulari, fikr-mulohazalari, g'oyalari va e'tiqodlarini tushunish, tan olish va qabul qilish; pedagogik tolerantlik esa ta'lim-tarbiya jarayonining barcha subyektlari bilan tolerant munosabatda bo'lish ko'nikma va malakalariga ega bo'lish; o'quvchilarda boshqalarning fikri, qarashlari va xatti-harakatlarini tushunish, qabul qilish va tan olish, turli din va madaniyat vakillariga nisbatan bag'rikeng bo'lish singari ko'nikma va malakalarni takomillashtira oladigan pedagogning shaxsiy va kasbiy fazilatlarini sifatida talqin etiladi.
2. Magistratura talabalarida pedagogik tolerantlik tafakkurni rivojlantirish milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida shaxsiy va kasbiy fazilatlar yig'indisi sifatida pedagogik tolerantlikka doir egallagan bilim, ko'nikma va malakalarni amaliyotda o'quvchilarga yetkaza olish qobiliyati va tayyorgarligi darajasini oshirishga xizmat qiladi.



3. Hozirgi globallashtirish sharoitida professor-o'qituvchilarni tayyorlash sifatini zamon talablari darajasida ta'minlash, jamiyatda bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy sohalaridagi mavjud tajribalar asosida jismoniy tarbiya fani mazmunini takomillashtirib borish va ularda pedagogik tolerantlikni rivojlantirish muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi PQ-5040-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori // "Xalq so'zi" gazetasi, 2021 yil 27 mart, № 62 (7842).
2. Mirziyoev Sh.M. BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi // Xalq so'zi, 2017 yil 20 sentyabr
3. Locke J. A Letter Concerning Toleration. The edition referred to is translated by W. Gough. – Oxford University Press, 1968. – P. 121.
4. Асмолов А.Г. Смыслах понятия толерантности // Век толерантности. – 2001. – № 1–2. – С. 48
5. Ivanov P.I., Zufarova M.E. Umumiy psixologiya. Darslik. – Toshkent, 2008. – B.186-187
6. Фадеева Т. Ю. Формирование педагогической толерантности будущих специалистов сферы образования: автореф. дисс. ... канд. пед. наук. –Саратов, 2012. – 24 с.
7. Воднева С. Н. Формирование толерантности студентов как педагогическая проблема // Вестник Псковского государственного университета, 2014. – № 4. – С. 149–154.;
8. Дунаенко А. И. Особенности подготовки студентов педагогической магистратуры к организации дополнительного образования детей подросткового возраста: автореф. дисс. ... канд. пед. наук. – Гамбов, 2007. – 25 с
9. Дмух Г.Ю. Педагогические условия формирования профессиональной компетентности магистров электротехнического направления: автореф. дисс. ... канд. пед. наук. –Комсомольск-на-Амуре, 2010. – 22 с.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.